

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY- IQTISODIY AHAMIYATI

Odilova Iroda¹

Oriental universiteti

KEYWORDS

xizmat ko'rsatish sohasi,
modernizatsiya, bandlik,
mehnat resurslari, iqtisodiy
rivojlanish, xizmat sifati,
ishsizlik, innovatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, uni modernizatsiyalash zaruriyati va bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi. Xususan, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat resurslarini boshqarish, bandlikni ta'minlash, xizmatlar turlarini kengaytirish hamda sifatni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ushbu muammolarning nazariy asoslarini yoritgan holda, zamonaviy iqtisodiy sharoitda xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan takliflar va ilmiy xulosalarni ilgari suradi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15684947**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Respublikamizda barqaror va ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni samarali rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'z natijalarini bermoqda. XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrning boshlarida iqtisodiy tizimda birdan-bir ahamiyatli hodisa bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va bu sohada ish bilan bandlar sonining kengayib borishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlar salmog'i 70 foizdan ziyodni va uning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 80 foiz atrofida tashkil etmoqda. Keyingi vaqtlarda respublikamizda kiruvchi turizm rivojlanishi bir muncha oshgan bo'lsada, biroq bu ko'rsatkich yetarli darajada o'sishini ta'minlash uchun potensial imkoniyatlardan yetarlicha foydalanilmayapti. Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, buning asosiy sababi hududiy turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohaslariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytiriladi. Shuningdek, 20 mingta tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirishni taklif etaman» deb ta'kidlangan. Ushbu vazifalarni hal qilishda

¹ Oriental universiteti 2-kurs magistri

xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish jarayonida samaradorlikni baholashning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ushbu soha rivojlanishining ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Demak, xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash xizmatlarni yanada rivojlantirish, ularni yangi turlarini shakllantirishni kuchaytirib boradi. Shu sababli ham xizmat ko'rsatish sohasi har tomonlama, har xil usulda, bosqichma-bosqich tartibda rivojlantirib kelinishi lozim.

Aholining turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilanishi xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu sababli ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelindi. O'zbekiston mustaqillikdan keyingi qisqa davr ichida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va unda aholi bandligini oshirish bo'yicha boy tajribaga ham erishdi. Buni mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash va uni rivojlanish borasidagi olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosatda ko'rish mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasidagi boy tajriba shu sohani modernizatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu borada mashhur iqtisodchi olim A.Maddison «The World economy: a millennial perspective» nomli asarida modernizatsiya bosqichiga o'tish qiyinchiligi haqida to'xtalib, quyidagi fikrni bildirgan:- « mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalashda YaIMning aholi jon boshidagi hajmini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini, modernizatsiya bosqichiga ijtimoiy larzalarsiz o'tish nihoyatda mushkul ekanligini, bunga faqatgina, iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori va barqaror darajaga ega bo'lgan mamlakatlar o'tishi mumkinligini tushuntirgan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni nazariy va amaliy jihatdan boy tajribani talab etadi va u mamlakat taraqqiyoti uchun yangi bir davr hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash juda murakkab ijtimoiy va iqtisodiy hodisa. Uni mukammal va chuqur o'rganmasdan xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash bo'yicha strategik qarorlarni qabul qilish qiyin. Chunki modernizatsiyada ijtimoiy o'zgarishlar o'z-o'zidan, mexanik tarzda amalga oshmaydi. Aksincha, u o'ta murakkab jarayon bo'lib, undagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda jamiyatdagi yangilanishlar gohida ochiq, gohida yashirin shaklda kechadi. Jahon amaliyoti ham, an'anaviy jamiyatlarning zamonaviy jamiyatlarga o'tish jarayonlarida aholining turmush darajasiga keskin ta'sir etishini, aholi o'rtasida tabaqalashuv va ijtimoiy adolat muvozanati buzilishini ko'rsatdi. Ayrim istiqbolli soha va tarmoqlar ham muayyan vaqtgacha o'ziga yarasha muammolarga duch keladi. Shuning uchun ham, bugungi kunda modernizatsiya o'ta muhim, shu bilan birga, eng murakkab, tanqid qilinadigan ilmiy paradigmalardan biri hisoblanadi. Shu sababli bo'lsa kerak, xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash jarayonini amalga oshirish bo'yicha aniq va mukammal usullar hanuzgacha ishlab chiqilmagan. Iqtisodchi olimlar L.N.Maniskaya va B.M.Jukovlarning xizmat ko'rsatish tashkilotlarini modernizatsiyalash bo'yicha olib borgan tadqiqotlari bu borada erishgan eng muhim ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ular

xizmat ko'rsatish korxonalarida modernizatsiyalash modellarini ishlab chiqib, unga ta'sir etadigan tashqi va ichki omillarni ham ko'rsatib bergan.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida modernizatsiyalash modellarini ishlab chiqilishi sohani rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo, xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalanishda yagona yondashuvni ishlab chiqish va uni aniqlash imkonini bermaydi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash uchun ham modernizatsiyalash zarur. Shu sababli ham xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalashning usuli ishlab chiqilishi lozim. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modernizatsiyalash iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalashdan keskin farq qiladi. Masalan: qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda mamlakat aholisini oziq-ovqat maxsulotlari bilan uzluksiz va barqaror ta'minlash, yer resurslari unumdorligini oshirish, ekologik muvozanatni saqlash yoki sohani eksport salohiyatini keskin ko'tarish nazarda tutiladi. Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyasi ham tiklanmaydigan resurslaridan imkon qadar samarali foydalanishni nazarda tutadi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modernizatsiyalanishi esa asosan quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

- xizmat turlarini ko'paytiradi;
- xizmatlar hajmini oshiradi;
- xizmatlarning sifatini yaxshilaydi;
- xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyati mavjud. U xizmat ko'rsatish sohasining ayrim tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning qisqarishiga olib kelsa, ayrimlarida esa aholi bandligini ta'minlaydi. Masalan: tibbiyot sohasidagi yangi texnologiyalar bir vaqtning o'zida bemorning qon bosimini, yurak urushini hamda qon tarkibini aniqlash imkonini beradi. Bunda bemor o'z xastiligi bo'yicha yana boshqa bir shifokor ko'rigidan o'tishga xojat qolmaydi. Demakki, shu sohadagi mutaxassislar tarkibida kadrlar qisqarishi sodir bo'ladi. Ta'lim sohasida esa modernizatsiya jarayonining kuchayishi yangi ish o'rinlarini ochish imkonini beradi. Ta'lim sohasida modernizatsiyani kirib kelishi undagi o'quv dasturlarini yangilanishi va jahon standart talablariga moslashishi natijasida o'quv muassasalaridagi har bir o'qituvchining yillik o'quv yuklamasi o'zgaradi. Ta'lim sohasidagi modernizatsiya o'qituvchilarga o'z ustida ishlash, yangi manbalardan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni topish uchun alohida vaqt ajratadi. Bu esa ushbu sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim sifatini yanada yaxshilash imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish sohasidagi modernizatsiyani yaxlit bir ko'rinishda qabul qilish maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar bandlik nuqtai nazardan qarash lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalanish jarayonida quyidagi muammolar kelib chiqadi:

- xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash natijasida xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosi;
- xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning malakaviy ko'nikmasini oshirish muammosi;

➤ xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini yanada oshirish muammosi.

Bunda modernizatsiya mehnat unumdorligini oshirsada, biroq ushbu sohada band xodimlarning yanada ko'proq xizmat ko'rsatish uchun rag'batlantirishning turli usullarini ishlab chiqish muammosini qo'yadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar ichidan eng murakkabi, xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosidir. Ushbu muammo mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotganlarni ish bilan ta'minlash muammosidan, xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning malakaviy ko'nikmasini va mehnat unumdorligini yanada oshirish muammolaridan ancha qiyin hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning malakaviy ko'nikmasi yoki mehnat unumdorligi YaIM hajmining kamayishiga va sifatiga ta'sir etsa-da, mamlakat taraqqiyoti uchun ijtimoiy muammoni keltirib chiqarmaydi. Xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslari esa ishsizlar sonini oshiradi. Shuning uchun xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash natijasida yuzaga keladigan muammoni bartaraf etishda «Sohada band bo'lgan xodimlarning qisqarishi» nuqtai nazaridan qarashni, aholi bandligining keskinlashishini oldini olish uchun esa quyidagi ikki xil yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi:

Birinchisi, xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash;

Ikkinchisi, mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarni ish bilan ta'minlash.

Xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosining yana bir muhim jihati shundaki, ularning malakasini oshirishdir.

Ilmiy adabiyotlarda va tadqiqot ishlarida axolini ish bilan ta'minlash muammosi faqatgina mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarni ayrim hollarda esa iqtisodiyotdagi band aholining qisqarishi oqibatida yuzaga keladigan ishsizlarni bandligini ta'minlash bo'yicha fikr muloxazalar yuritilgan. Ammo xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini bandligini ta'minlash bo'yicha aniq, e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmagan. Shu bois ham ushbu muammoni yechish uchun avvalo uning nazariy jihatlarini ilmiy asoslash o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida xizmat ko'rsatish sohasida ortgan mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Bularga: ishdagi qiziqishi, yangiliklarni joriy etishga moyilligi, ishga tezlik bilan moslashishi, daromadiga qoniqishi kabilarni kiritish mumkin.

Mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarning xususiyatlari esa xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarining xususiyatlaridan bir muncha farq qiladi. Masalan: yuqori ko'nikma va malaka oshirgan holatda mehnat bozoriga kirib kelish, yangi xizmat turlarini joriy etish, sifatli xizmat ko'rsatish, sohada band bo'lishga bo'lgan xoxish va yuqori moyillikka ega bo'lish va hokazo.

Umuman olganda aholini ish bilan ta'minlashda yuqorida aytib o'tilgan ikki xil yondashuvlar mamlakat taraqqiyoti uchun ishsizlarni xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etishda muhim rol o'ynaydi va quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

1. xizmat ko'rsatish sohasiga ish bilan band bo'lishga bo'lgan talabning ortishi;
2. xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini ortishi;

3. xizmat ko'rsatishning yangi turlarini vujudga kelishi;

4. xizmat ko'rsatish sohasida unumli ish bilan band bo'lish imkoniyatining paydo bo'lishi.

Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalash muammolari va ularning yechimlarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosaga kelindi va ilmiy takliflar ishlab chiqildi: - ilmiy adabiyotlarda va tadqiqot ishlarida axolini ish bilan ta'minlash muammosi faqatgina mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarni, ayrim hollarda esa iqtisodiyotdagi band aholining qisqarishi oqibatida yuzaga keladigan ishsizlarni bandligini ta'minlash bo'yicha fikr mulohazalar yuritilgan. Ammo xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini bandligini ta'minlash bo'yicha aniq, e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmagan. Hatto, bu borada iqtisodiy adabiyotlarda biron-bir fikr va mulohazalar yuritilmagan. Ushbu muammoni yechish uchun avvalo uning nazariy jihatlarini o'rganildi. Xizmat ko'rsatish sohasida ortgan mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari ham aniqlandi. Bularga: ishdagi qiziqishi, yangiliklarni joriy etish moyilligi, ishga tezlik bilan moslashishi, daromadiga qoniqishi kabilar kiritildi.

Eng muhimi, mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarning xususiyatlaridan xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarining xususiyatlari o'rtasidagi bir muncha farqi ham topildi. Xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiyalanish jarayonida aholi bandligi keskinlashadi. Ushbu muammoni yechish uchun quyidagi ikki xil yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi: Birinchisi, xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash; Ikkinchisi, mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotgan kishilarni ish bilan ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.
- 1.6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston " NMIU, 2017.
- 1.7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston " NMIU, 2017.
- 1.8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir

rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

1.9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. Norqulov A., Bo'tayev O'. Xizmat ko'rsatish va servis sohalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishda soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish. Maqola, – T.: TMI –Tahririyat nashroyot|| bo'limi, 2014-yil.D.Parpiyeva. –Bozor iqtisodiyotida auditorlik munosabatlari|| 2015. Tezislar to'plami.

2.2. Mihaela Alina Robu, Ioan Bogdan Robu, –The influence of the audit report on the relevance of accounting information reported by listed Romanian companies||

2.3. Турсунова М.Р., Ли И.В.: “Значение и развитие новых зарубежных инвестиций в экономике Республики Узбекистан”-Республиканская научно-техническая конференция. Формирование инновационного мышления студентов химико технологического направления, Ташкент,2018

2.4. Xidirov N.G'. Sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Ph.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. T.:2021.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1.Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редаксии Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 2-част, 1995., 281-стр.

3.2.Богатин Ю.В., Швандар В.А. “Инвестиционный анализ”: Учебное пособие для вузов.- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000., 148-149 стр.

3.3.Imomov X.X.: Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, o'quv qo'llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

3.4.Капитенко В.В. Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. - М.: «Издательство ПРИОР», 2007.

3.5.Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник.-СПБ.: “Михайлова В.А”,2000.

3.6.Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: учеб.пособие.-М.:“ИНФРА-М”, 2009.

3.7.Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A.: “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010.

3.8.Mamatov B.S., Hojamkulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.Darslik. T.:”Iqtisod-Moliya”, 2014.

3.9.Мазур И.И., Шапиро В.Д., Олдерогге Н.Г. “Инвестиционно-строительный инжиниринг”. Учеб.пособие-М.:ЕЛИМА, 2009.

3.10.Nosirov E.I., Asomxodjayeva Sh.Sh., Aliqulov M.S. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. T.:”Iqtisod-Moliya”, 2020.

IV. Internet saytlari

→ www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal;

- www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- www.lex.uz - O'R qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi;
- www.publicfinance.uz - O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi;
- www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi;
- www.ziynet.uz - O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i;
- www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi;
- www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi;
- www.sciencedirectassets.com - Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari;
- www.miit.uz - O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi;
- <http://www.ved.gov.ru/articles>.